

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**2013 – 2016 YILLARDA TA'LIM MUASSASALARINING CHET TILLARI
KABINETLARINI ZAMONAVIY AXBOROT - KOMMUNIKASIYA, O'QITISHNING
TEXNIK VOSITALARI VA ANJOMLARI BILAN JIHOZLASH (QO'SHIMCHA
JIHOZLASH)NI JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 22-son, 283-modda, 34-son, 453-modda; 2016 y., 17-son, 176-modda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son qarorining bajarilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan ishlab chiqilgan, 2013 — 2016 yillarda ta'lim muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlashni (qo'shimcha jihozlashni) jadallashtirish Dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb ataladi) tasdiqlansin, Dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlash normativlari 1-ilovaga muvofiq;

2013 — 2016 yillarda umumta'lim maktablarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlashning (qo'shimcha jihozlashning) asosiy ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2013 — 2016 yillarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlashning (qo'shimcha jihozlashning) asosiy ko'rsatkichlari 3-ilovaga* muvofiq;

2013 — 2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlashning (qo'shimcha jihozlashning) asosiy ko'rsatkichlari 4-ilovaga* muvofiq.

2. Quyidagilar Dasturni moliyalashtirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi mablag'lari;

(2-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 apreldagi 122-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2016 y., 17-son, 176-modda)

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar;

Oldingi tahrirga qarang.

oliy ta'lim muassasalariga maqsadli ravishda byudjetdan ajratiladigan mablag'lar;

(2-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 apreldagi 122-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2016 y., 17-son, 176-modda)

imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda ta'lim muassasalarini jihozlash uchun belgilangan tartibda xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari hamda donor mamlakatlarning imtiyozli xorijiy kreditlarini jalb etish choralarini ko'rsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda har yili ta'lim muassasalarini jihozlash (qo'shimcha jihozlash) manzilli dasturlarining shakllantirilishini va belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta'minlasinlar.

Belgilab qo'yilsinki, har yili ta'lim muassasalarini jihozlash (qo'shimcha jihozlash) manzilli dasturlarini shakllantirishda har bir ta'lim muassasasining moddiy-texnika jihatidan amalda ta'minlanganligi hisobga olinadi hamda o'qitishning texnik vositalari asossiz tarzda hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengashga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligining taklifiga ko'ra, zaruriyat bo'lganda, Dasturga va jihozlash normativlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.I. Ikramov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,
2013 yil 27 may,
143-son